

**Shoxruxjon TOSHTEMIROV,**

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

E-mail: toshtemirovshohruxjon@gmail.com

**Moxigul KURBONOVA,**

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

E-mail: pmokhi2010@gmail.com

**Zilola FATXULLAYEVA,**

O'zbekiston Milliy universiteti Geodinamika va tektonika kafedrasи mudiri

E-mail: fatxullaevaziola@gmail.com

*Geologiya fanlari universiteti E.Amirov taqrizi asosida*

## COMPOSITION CHARACTERISTICS OF GOLD MINE-COVERING ROCKS (NORTHERN KARABUGUT AREA, CENTRAL KYZILKUM)

### Annotation

The study reflects the results of the mineralogical and petrographic characteristics of ore rocks in the North Karabugut area of the Auminza Mountains in Central Kyzylkum. It is noted that the overlying rocks are volcanogenic-sedimentary structures of the Auminza, Tasqazgan and Besapan suites, which are mainly composed of mica, carbon-mica, feldspar-chlorite-mica shales, metaeurolites and sandstones.

### **ХАРАКТЕРИСТИКА СОСТАВА ЗОЛОТОРУДОВМЕЩАЮЩИХ ПОРОД (СЕВЕРНЫЙ КАРАБУГУТСКИЙ ПЛОЩАДЬ, ЦЕНТРАЛЬНЫЙ КЫЗИЛКУМ)**

#### Аннотация

В исследование отражены результаты минералого-петрографической характеристики рудных пород Северо-Карабугутского участка гор Ауминзату в Центральных Кызылкумах. Отмечено, что перекрывающие породы представляют собой вулканогенно-осадочные структуры ауминзинской, тасказганской и бесапанской свит, которые сложены преимущественно слюдистыми, углеродисто-слюдяными, полевошпатово-хлорит-слюдистыми сланцами, метаалевролитами и песчаниками.

### **OLTIN MA'DAN QAMROVCHI JINSLARNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI (SHIMOLIY QORABUGUT MAYDONI, MARKAZIY QIZILQUM)**

#### Annotatsiya

Tadqiqot Markaziy Qizilqumdagи Auminza tog'larining Shimoliy Qorabugut maydonidagi ma'danli jinslarning mineralogik va petrografik xususiyatlarini o'rganish natijalarini aks ettiradi. Qayd etilishicha, qamrovchi jinslar auminza, tasqazg'an va besapan svitalarining vulkanogen-cho'kindi tuzilmalaridan bo'lib, ular asosan slyudali, uglerod-slyudali, dala shpat-xloritli-slyudali slaneslar, metaalevrolutlar va qumtoshlardan tashkil topgan.

**Kalit so'zlar:** Auminza tog'lari, ma'dan qamrovchi jinslar, svita, mineralogik-petrografik tavsif, struktura, tekstura, slaneslar, metaalevrolutlar, qumtoshlar.

**Kirish.** Ma'lumki, G'arbiy O'zbekistonda foydali qazilma, shu jumladan ma'danli konlar keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi magmatik tog' jinslari tarkibini to'laqonli o'rganib, ular bilan bog'liq bo'lgan yashirin ma'danlashuvni aniqlash qidiruv geologiyasining dolzarb vazifalaridan bira sanaladi. Bu borada ma'danlashuvning geokimyoiy xususiyatlari ayniqsa katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masalalar yechimini muvaffaqiyatli ravishda aniqlash, yashirin ma'danlashuvning bashorat-qidiruv mezonlari va belgilarining samarali tizimini yaratish imkonini beradi.

Auminza tog'lari Markaziy Qizilqumming janubiy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, geotektonik jihatdan Janubiy Tyan-Shan struktura-formatsiya zonasining Zarafshon-Turkiston burmalangan sistemasiiga kiradi. Tadqiqot hududi magmatik hosilalar dastlab N.P Petrov, A.F Sosedko, I.X Xamrabayev, V.M Jelezov, V.F Popov, Z.A Yuldashevich, X.R Raxmatullayev, I.V Shvey, V.V Baranov, E.P Izox va b. tomonidan o'rganilgan. Auminza tog'i hududida tarqalgan tog' jinslari Tomezazoy fundamentini tashkil qiluvchi yuqori proterazoy (auminza svitasi asosli vulkanogen jinslar), tasqazg'an svitari toleitli bazaltlar metamorfizmi mahsulotlari), ordovik (qo'rg'ontov svitasi metaterrigen tog' jinslar), rohat svitasi metaalevroslaneslar, murun svitasi metapellitlari) va devon (jingeldi svitasi karbonat jinslar) yotqiziqlaridan va muayyan strukturaviy o'rinn tutgan tektonik va tektonik-gravitationshing chiqishga ega qatlamlar - qo'spaqtov melanj, tektonitlashgan kosmonachi va zaxquduq olistostromidan iborat. Mezozoy va kaynazoy yotqiziqlari tabiiy ochilmalarda ma'lum va ko'p sonli strukturaviy burg'i quduqlari yordamida ochilgan. Ularning eng qarisi o'rta-kechki yuraning ola-chipor rangli quduq-sarbotir svitasi yotqiziqlari sanaladi ularning ustida stratigrafik nomuvofiqlik bilan yuqori bo'ri jinslari yotadi. Bo'rnинг kalota, jamanyar, uzunquduq, shuruq, dovg'istov, uchquduq, jayranto'y, kindikto'ba, lavlav, qinir, qaroqota svitralari yotqiziqlari keng tarqalgan. Ularning yuqorisida paleogen (qozoqtov, nura, sugrali, qultovon, maral svitralari) va neogen hosilalar tarqalgan.

Auminza tog'i hududidagi tektonik strukturalar uchta strukturaviy qavatlardan: mezo-kaynazoy cho'kindi dengiz yotqiziqlari va ko'l botqoqlik hosilalaridan tashkil topgan -alp; odatda sinklinallar muldalarida va tektonik tangachalarda saqlanib qolgan quyi va o'rta devonning reduksiyalangan kesmasi qoldiqlaridan va fragmentlaridan iborat - gersin; ichida tektonitlashgan mikstlitli hosilalar saqlanib qolgan ko'p qoplamlari sharyaj qurilmalari - kaledon [1].


**Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari.** Respublikamiz tog'-kon hududlarida joylashgan oltin konlarining ma'danlari va ma'dan oldi jinslarning moddiy tarkibini o'rganish, geologik tadqiqotlarning muhim vazifasi bo'lib, bu ayniqsa yangi qidiruv maydonlari uchun muhimdir.

O'rganilayotgan hududning tuzilishi uzoq muddatli rivojlangan gersin antiformasi, murakkab shakldagi kenglik bo'ylab cho'zilgan yirik blok ko'rinishiga ega [2,3,5]. Ushbu qurilmaning o'zagi tasqazg'an svitasi (yuqori proterozoy) jinslарidan tashkil topgan, qanotlari besapan svitasi (quyi paleozoy) jinslарidan tashkil topgan bloklarga to'g'ri keladi. Hududning oltin-kumush mineralallashuv zonalari ko'rsatilgan jinslarda joylashgan va subkenglik yo'nalishidagi tektonik buzilishlari bilan nazorat qilinadi,

oltin ma'danlarini tavsiflovchi sulfidli minerallasshuv zonalari, shimoli-g'arbiy yo'nalishga ega bo'lgan kvarslashgan jinslar bilan makonda uzviy bog'liqlik hosil qilib rivojlangan [2,4].

Auminza tog'laridagi Shimoliy Qorabugut istiqbolli hududidan vulkanogen-cho'kindi qamrovchi jinslar tarkibining mineralogik-petrografik ma'lumotlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida, ushbu hosilalar auminza (hududning markaziy qismida tub ochilmalar hosil qilgan), tasqazg'an va besapan svitalarining, asosan, slyudali, uglerod-slyudali, dala shpat-xlorit-slyudali, slanetslar, metaalevrolitlar va qumtoshlardan tashkil topganligi aniqlandi. Quyida ko'rsatilgan qamrovchi jinslarning mineralogik-petrografik tavsifi keltirilgan.

Slaneslar. Slaneslarning petrografik tarkibi xilma-xildir, lekin ularning asosiy mineralallari kvarts, seritsit, plagioklaz (albit) va kamroq xloritdan iborat. Ko'pincha slaneslar lepidogranoblastik mikrogranulyar tuzilishga ega va chiziqli dog'li teksturasi mavjud (1-rasm, a-b).



**1-rasm. Xlorit-plagioklaz-seritsitli slaneslar (a-b), karbonat qo'shimchalar bilan (yorqin nuqtalar) va piritlarning tarqalishi (qora, chapdan yuqori burchakda); matatufoalevrolit (v-g) qayta kristallanish zonalari bilan (o'ng rasm, pastki chap burchak). Kattalashtrish x200, chap nikoli (=); o'ng (+).**

Tog' jinslarida minerallarning tarqalishi o'zaro bir xil. Tog' jinsining chiziqli tuzilishi minerallarning zanjirli joylashishi bilan bog'liq, masalan, rutil va boshqalarning. Dala shpati sezilarli darajada pelitizatsiyalashgan. Mayda kvarts donalari notejis va dog'li taqsimlanadi. Karbonat ham jinsda notejis, alohida nuqtalar shaklida taqsimlanadi. Minerallarning o'lchamlari 0,3-0,6 mm gacha.

Xlorit-plagioklazli slaneslar ko'pincha juda burmalangan teksturaga ega. Plagioklaz o'rtacha pelitizatsiyalashgan albit bilan ifodalananadi. Strukturasi lepidogranoblastli, asosiy massasi bir xil donador. Ma'dan minerallaridan (temir gidrosidlaridan tashqari) rutilning pushti-sariq to'plamlari mavjud.

Slaneslarning paydo bo'lishi uchun birlamchi hosilalar, ko'rinishidan, tufli andezit porfiritlarning alevropelitli tuflari xizmat qilgan.


Metatufoalevrolitlar asosan plagioklaz (55-60%), xlorit (20-25%), kvarts, rutil va sfendan iborat. Strukturasi blastoalevopellitli, teksturasi noaniq tasmali. Ba'zi joylarda metatufoalevrolitlar xlorit-plagioklaz aggregatining ustun granoblastik mikrostrukturasi bilan o'zaro qayta kristallangan parchalangan qirrali zarralari bilan chegaralaralanadi. Qayta kristallanish jarayonida leykoksen kichik to'planishlarga qayta taqsimlangan, u yorqin qizil rangga ega bo'lib, gidrotermal o'zgarishlar natijasida rutilga aylangan (1-rasmga qarang, v-g). Rutil tarkibida vanadiv ya xromning nisbatan yuqori miqdorlari aniqlangan bo'lib, ular cho'kindi-metamorfogen jinslarning tarkibi bilan bog'langanligini e'tirof etish imkonini beradi.

Ma'dan mineralashuvi piritning anchicha zinch, yupqa va mayda, bir tekis keng tarqalanganligi bilan ifodalangan, ularning o'lchamlari 0,001 mm dan 0,5 mm gacha o'zgarib turadi. Pirit donalarining o'rtacha kattaligi 0,03 mm. Ularning xarakterli xususiyati biroz cho'zilgan shakl bo'lib, cho'zilishi bilan pirit donalari tog' jinslaridagi slaneslar bo'ylab yo'naltirilgan. Slaneslashuvga mos rivojlangan zarrali piritning zanjirli to'planishi natijasida yirik uyasimon, gipidiomorf shakldagi pirit donalari rivojlanadi.

Ko'pgina pirit zarralari temir gidrosidlarini hosil qilib oksidlanishga moyil bo'lgan. Alohida hollarda, ayrim pirit donalari pirottinning mikro qo'shimchalarini o'z ichiga oladi.

O'rganilayotgan hududda qumtoshlar ham keng tarqalgan bo'lib, plagioklaz va kvarts bo'laklaridan iborat. Tog' jinsining sementi asosan bazalli bo'lib, asosiy massasi seritsit va xlorit bilan ifodalananadi.

Qumtoshlardagi bo'lak donalari (kvarts, plagioklaz) hech qanday o'zgarishlarga uchramagan va o'zining dastlabki, burchak shaklini saqlab qolgan. Albitning zaif seritsitlashgani qayd etilgan. Tog' jinslari hajmi 20-35% dan 45-50% gacha bo'lgan siniq materiallardan tuzilgan. Ushbu jinslarning sementi sezilarli darajada o'zgargan, ba'zi joylarda mayda tusli seritsit, kvarts va xlorit bilan ifodalananadi.



**Rasm 2. Albit-kvarsli metatufoqumtoshlar (a-b), kvars-karbonatli tomirlar bilan kesilgan, kattalashtirish x200, chap nikoli (=); o'ng (+); qamrovchi jinslardagi pirit va arsenopiritning zanjir va linza shaklidagi ajralishlari (v-g; silliqlangan shifflar; kattalashtirish x160).**

Teksturasi massiv (odatda tuqli qumtoshlarda), tasmali, kuchsiz qatlamlı, strukturasi siniqli - blastoalevrolitli, blastopsammítli, sementi esa ba'zi joylarda lepidoblastli. Bu jinslar linzalar va tomirlar ko'rinishida kvarslashgan. Ular qalinligi ba'zan 0,5-0,7 sm gacha bo'lgan kvars-kalsit tomirlari bilan ham kesiladi (2-rasm, a-b).

Kuchsiz o'zgargan tufoalevrolitlar va qumtoshlarda idiomorf kubik kristalli piritning mayda zarralari kuzatiladi, ularning barchasi donalarning notejis tarqalishi bilan tavsiflanadi, piritning o'lchamlari 0,002 mm dan 0,03 mm gacha. Ularning idiomorf darajasi ham juda o'zgaruvchan: idiomorf kub kristallari bilan bir qatorda o'ta silliq yoki ozroq qiyshiq chegaralarga ega bo'lgan izometrik donalar qayd etilgan (2-rasmga qarang, v-g).

**Xulosa va takliflar.** Auminza tog'laridagi (Markaziy Qizilqum) Shimoliy Qorabugut istiqbolli hududining asosiy vulkanogen-cho'kindi jinslarining mineralogik va petrografik xususiyatlari aniqlangan: tog' jinslarining petrografik tarkibi xilmoxil, lekin ularning asosiy mineralllari kvars, seritsit, plagioklaz (albit) va kamroq xloritlardan iborat. Ushbu jinslarda piritning idiomorf kub kristallari kuzatiladi, ular ko'pincha donalarning notejis tarqoq tarqalishi bilan tavsiflanadi, ular bilan bir qatorda silliq izometrik pirit donalari ham qayd yetilgan.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Amirov E.M., Karabayev M.S., Djurabayev A.B., Orolov A.K. Auminza tog'i intruziv komplekslari tog' jinslarida ma'danli va nodir yer elementlarining tarqalish xususiyatlari. Konchilik xabarnomasi №4 S 57.
2. Анненкова Т.Е., Ажирей Д.Г. Минералого-геохимическая зональность палеозойского выступа гор Ауминзатай // Актуальные проблемы геологии и геофизики. – том 2. – Т.:Фан, 2007. –С.3-9.
3. Карабаев М.С. Типоморфные особенности главнейших минералов золотого оруденения Карабугутской площади гор Ауминзатай (Центральные Кызылкумы) и их значение для прогноза // Горно-геологический журнал - 2015 №3-4. - С. 55-59.
4. Котов Н.В., Зверев Ю.Н., Порицкая Л.Г. Золото-черносланцевое рудообразование (Центральные Кызылкумы) // Санкт-Петербург: Невский курьер. – 115 с.
5. Проценко В.Ф. Золоторудный минерагенез в черносланцевых толщах Западного Узбекистана. Ташкент: Зап. Узб. отд. Вып.40, с. 24 – 30.